



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixov o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	



KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIALARNING AHAMIYATI

Usmonova Zarina

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Butayev Javlonbek Inotillo o'g'li

TDIU katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Kichik biznesni rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati va ta'siri tahlil qilingan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda innovatsion faollikni rag'batlantirishdagi o'rnini yoritilgan. O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar statistik ma'lumotlar asosida baholanib, xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish hamda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsion faollik, texnologiyalar transferi, innovatsiyalar, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: Проанализированы экономическое значение и влияние прямых иностранных инвестиций на развитие малого бизнеса. Раскрыта роль прямых иностранных инвестиций во внедрении современных технологий, повышении производственного и экспортного потенциала, создании новых рабочих мест и стимулировании инновационной активности. На основе статистических данных дана оценка реформам, направленным на улучшение инвестиционного климата в Узбекистане, а также разработаны научно-практические предложения по эффективному привлечению иностранных инвестиций и повышению конкурентоспособности субъектов малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная активность, трансфер технологий, инновации, экспортный потенциал, конкурентоспособность, экономическая эффективность.

Abstract: The economic significance and impact of foreign direct investment on small business development are analyzed. The role of foreign direct investment in introducing modern technologies, enhancing production and export potential, creating new jobs, and stimulating innovative activity is examined. Reforms aimed at improving the investment climate in Uzbekistan are assessed based on statistical data, and practical recommendations are proposed for attracting foreign direct investment more effectively and strengthening the competitiveness of small businesses.

Keywords: small business, foreign direct investment, investment climate, investment activity, technology transfer, innovation, export potential, competitiveness, economic efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda kichik biznes iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda muhim subyektlardan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb etish kichik biznesning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning muhim omilidir.

Rivojlangan davlatlar tajribasi xorijiy investitsiyalar qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan birga ilg'or boshqaruv tajribasi, zamonaviy texnologiyalar, marketing strategiyalari va eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini ham olib kirishini ko'rsatadi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda investitsiya muhitini yaxshilash, investorlar huquqlarini himoya qilish va biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda investitsiya siyosatini takomillashtirish, xorijiy investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Iqtisodiy islohotlar natijasida investitsion jozibadorlik oshib, TTXI hajmi ortib bormoqda. Bu kichik biznesning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kuchaytirmoqda.



Shu bilan birga, hududlar bo'yicha investitsiyalarning mutanosib taqsimlanishini ta'minlash, ayrim tarmoqlarda investitsion faollikni yanada oshirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda kichik korxonalarining xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik tajribasini kengaytirish imkoniyatlari mavjud.

Mazkur tadqiqotning maqsadi kichik biznesni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyatini baholash, ularning iqtisodiy o'sish, bandlik, eksport va innovatsion rivojlanishga ta'sirini tahlil qilish hamda investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekistonda kichik biznes rivojlanishiga xorijiy investitsiyalarning ta'sirini zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda kompleks baholash hamda investitsiya siyosatini takomillashtirish va investitsion faollikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida keng tadqiq etilgan. Ular iqtisodiy o'sish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro integratsiyani rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Joseph Schumpeter tadbirkorlik va innovatsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, investitsiyalar yangi mahsulotlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishini ta'kidlagan [1].

Paul Romerning endogen iqtisodiy o'sish nazariyasida bilim, texnologiya va inson kapitali iqtisodiy o'sishning muhim omillari sifatida qaraladi. Bu yondashuv xorijiy investitsiyalarning texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va bilimlar transferidagi ahamiyatini asoslaydi [2].

John H. Dunningning OLI paradigmasi TTXIni mulkiy ustunlik, joylashuv va ichkilashtirish omillari bilan izohlaydi. Nazariya investitsion muhit, resurslar va institutsional sharoitlarning xorijiy kapital oqimidagi rolini asoslaydi [3].

Zamonaviy tadqiqotlarda OECD xorijiy investitsiyalarni mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport salohiyatini oshiruvchi omil sifatida baholaydi [4]. UNCTAD ularning sanoatlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksportni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlaydi [5]. Jahon banki esa qulay biznes muhiti, huquqiy kafolatlar, infratuzilma va moliyaviy tizimni xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim shartlari sifatida ko'rsatadi [6].

O'zbekiston sharoitida Q.X. Abdurahmonov investitsiyalarni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, bandlikni ta'minlash va hududlarni rivojlantirishning muhim omili sifatida baholaydi [7]. Sh.Sh. Shodmonov xorijiy kapitalning ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologiyalarni joriy etish va eksportni rivojlantirishdagi rolini ko'rsatadi [8]. B. Xodiyev esa xorijiy investitsiyalarning kichik biznesning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatini asoslaydi [9].

Yuqoridagi tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar, texnologiyalar transferi va eksport salohiyatiga ta'siri keng yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda ularning aynan kichik biznes rivojlanishiga ta'sirini hududiy, innovatsion va eksport ko'rsatkichlari kesimida kompleks baholash bo'yicha tadqiqotlarni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Shu sababli mazkur tadqiqotda xorijiy investitsiyalarning kichik biznes rivojlanishiga ta'siri O'zbekiston misolida zamonaviy statistik ma'lumotlar asosida baholanib, ularni samarali jalb etish va ulardan foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznesni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyatini baholash maqsadida ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy va iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya, deduksiya hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini xorijiy investitsiyalar, investitsion siyosat, kichik biznes va iqtisodiy o'sish bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, jumladan, J. Dunningning OLI nazariyasi, J. Schumpeterning innovatsion rivojlanish konsepsiyasi, P. Romerning endogen iqtisodiy o'sish nazariyasi hamda OECD, UNCTAD va Jahon banki hisobotlari tashkil etdi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son¹ Qonun, Prezident farmon va qarorlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Jahon banki va UNCTADning rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi [10]. Ular asosida 2021–2025-yillarda TTXI hajmi, kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi, eksport va bandlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonun: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>



Tahlil jarayonida xorijiy investitsiyalar hajmi bilan kichik biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, investitsiyalarning korxonalar soni, ishlab chiqarish, eksport salohiyati va yangi ish o'rinlarini yaratishga ta'siri baholandi. O'zbekistondagi investitsiya islohotlari xalqaro tajriba bilan qiyoslandi.

Olingan natijalar asosida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning afzalliklari va ularning samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari aniqlanib, investitsiya muhitini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar natijasida mamlakatga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kichik biznesning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Xorijiy investitsiyalar kapital bilan birga innovatsion texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv tajribasi va xalqaro biznes standartlarini ham olib kiradi. Shu bois investitsion jozibadorlikni oshirish, investorlar huquqlarini himoya qilish va hududlarda investitsiya loyihalarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun 2021–2025-yillardagi asosiy investitsiya va kichik biznes ko'rsatkichlari tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar va kichik biznes rivojlanishining
asosiy ko'rsatkichlari (2021–2025-yillar holatiga ko'ra)^{*2}

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi (mlrd. AQSh dollari)	8,1	8,9	10,4	11,8	13,2
Kichik biznesning YalMdagi ulushi (foizda)	56,3	54,3	53,8	53,5	52,2
Faol kichik biznes subyektlari soni (mingta)	503	536	571	609	646
Kichik biznes eksporti (mlrd. AQSh dollari)	5,2	5,8	6,7	7,5	8,4
Xorijiy investitsiyalar hisobiga yaratilgan yangi ish o'rinlari (mingta)	48	56	63	71	79

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillarda O'zbekistonga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 8,1 mlrd. AQSh dollaridan 13,2 mlrd. AQSh dollarigacha oshgan [14]. Bu investitsiya muhitining yaxshilanayotgani va xorijiy investorlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga qiziqishi ortayotganini ko'rsatadi.

Mazkur davrda kichik biznesning YalMdagi ulushi 56,3 foizdan 52,2 foizgacha o'zgargan [13]. Shu bilan birga, TTXI hajmining o'sishi kichik biznes uchun moliyaviy resurslar, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasini jalb etish imkoniyatlarini kengaytirgan. TTXI o'sishi va kichik biznesning YalMdagi ulushi o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini yanada aniqroq baholash uchun qo'shimcha ekonometrik tahlil o'tkazish maqsadga muvofiq.


Faol kichik biznes subyektlari soni 2021-yildagi 503 mingtadan 2025-yilda 646 mingtaga yetgan [13]. Bu tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi bilan birga iqtisodiy faollikning ortganini ko'rsatadi.

Kichik biznes eksporti esa 5,2 mlrd. AQSh dollaridan 8,4 mlrd. AQSh dollarigacha oshgan [13]. Zamonaviy texnologiyalar va xalqaro hamkorlikning kengayishi mahsulotlarning xalqaro standartlarga moslashuvi, raqobatbardoshligi va eksport salohiyatining oshishiga xizmat qilgan.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar hisobiga yaratilgan yangi ish o'rinlari 48 mingtadan 79 mingtaga ko'paygan [14]. Bu investitsiya loyihalarining iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashdagi muhim rolini ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoat, xizmat ko'rsatish, logistika, axborot texnologiyalari va qishloq xo'jaligidagi loyihalar kichik biznes rivojiga turtki bermoqda.

Umuman olganda, TTXI hajmining o'sishi korxonalar soni, eksport va yangi ish o'rinlarining ko'payishi, shuningdek, texnologik va innovatsion rivojlanish bilan birga kechmoqda. Shu sababli investitsiya muhitini takomillashtirish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kichik biznesni rivojlantirishning muhim strategik yo'nalishidir (1-rasm).

*2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Markaziy bank hamda UNCTAD ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.



1-rasm. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi mexanizmlarining tasniflanishi*³

1-rasmda xorijiy investitsiyalarning kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etish mexanizmi tasvirlangan. Unga ko'ra, xorijiy investitsiyalar, avvalo, korxonalarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirib, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va zamonaviy uskunalar xarid qilish imkonini beradi [6]. Natijada ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sifati oshib, korxonalarning bozor talablariga moslashish imkoniyatlari kengayadi.

Bundan tashqari, xorijiy investorlar bilan hamkorlik natijasida kichik biznesga ilg'or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari va xalqaro biznes tajribasi kirib keladi [4]. Bu mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Zamonaviy menejment yondashuvlari esa korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va strategik rejalashtirishni takomillashtiradi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar kichik biznesning innovatsion rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [3]. Zamonaviy texnologiyalar yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada korxonalarning ilmiy-texnik salohiyati, innovatsion faolligi hamda ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi oshadi.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar eksport salohiyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro standartlarga mos mahsulotlar tashqi bozorlarga chiqishni osonlashtirib, eksport hajmi va valyuta tushumlarining ortishiga xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlikning rivojlanishi esa yangi eksport bozorlarini o'zlashtirish, xorijiy sheriklar bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatish va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashish imkonini yaratadi.


Tahlillar xorijiy investitsiyalarning yangi ish o'rinlarini yaratishdagi ahamiyatini ham ko'rsatadi [5]. Ayniqsa, sanoat, xizmat ko'rsatish, logistika, axborot texnologiyalari va qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan

3 Mualliflar tomonidan ilmiy adabiyotlar va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.



investitsiya loyihalari bandlik va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va mehnat bozori barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalar kichik biznesning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, texnologik va innovatsion rivojlanishini jadallashtirish, eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim strategik omil hisoblanadi. Shu sababli investitsiya muhitini takomillashtirish, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlarni kengaytirish va investitsiyalardan samarali foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun muhim ahamiyatga ega (2-rasm).



NATIJA → KICHIK BIZNESNING BARQAROR RIVOJLANISHI

2-rasm. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar*⁴

2-rasmda xorijiy investitsiyalarning kichik biznes rivojlanishidagi asosiy afzalliklari va ularning o'zaro bog'liqligi konseptual tarzda aks ettirilgan. Xorijiy investitsiyalar moliyaviy mablag'lar bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv tajribasi, innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xorijiy investitsiyalarning muhim afzalligi moliyaviy resurslarni jalb etishdir [6]. Qo'shimcha mablag'lar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, zamonaviy uskunalar xarid qilish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi esa ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy investorlar bilan hamkorlik natijasida zamonaviy korporativ boshqaruv, strategik rejalashtirish, marketing va menejment tajribasi ham kirib keladi. Bu korxonalarning boshqaruv samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik yangi biznes aloqalarini shakllantirish, tajriba almashish va ilg'or bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi.


Xorijiy investitsiyalar xalqaro bozorlarga chiqish va eksport salohiyatini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Xorijiy hamkorlar bilan aloqalar yangi bozorlar va iste'molchilarni topish, xalqaro ta'minot zanjirlariga qo'shilish hamda mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Innovatsiyalar xorijiy investitsiyalarning yana bir muhim natijasi bo'lib, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, raqamli va energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi. Natijada kichik biznesning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi oshadi.

Sxemadagi omillar o'zaro bog'liq bo'lib, moliyaviy resurslar texnologiyalarni, texnologiyalar esa innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Samarali boshqaruv resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlasa, xalqaro hamkorlik va tashqi bozorlarga chiqish eksport salohiyatini kengaytiradi.

Demak, mazkur omillarning uyg'unlashuvi kichik biznesning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Shu bois xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim strategik yo'nalishidir (3-rasm).

⁴ Mualliflar tomonidan ilmiy adabiyotlar tahlili hamda tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.



3-rasm. 2021–2025-yillarda O'zbekistonga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi⁵

3-rasmda 2021–2025-yillar davomida O'zbekistonga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining o'zgarish dinamikasi keltirilgan. Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, tahlil qilinayotgan davr mobaynida mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendentsiyasini namoyon etgan. Xususan, 2021-yilda 8,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 8,9 mlrd. AQSh dollariga, 2023-yilda 10,4 mlrd. AQSh dollariga, 2024-yilda 11,8 mlrd. AQSh dollariga va 2025-yilda 13,2 mlrd. AQSh dollariga yetgan [14].

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, 2021–2025-yillar davomida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 5,1 mlrd. AQSh dollariga yoki qariyb 63 foizga oshgan [14]. Eng yuqori o'sish sur'ati 2024–2025-yillarda kuzatilib, investitsiyalar hajmi bir yil ichida 10,4 mlrd. AQSh dollaridan 13,2 mlrd. AQSh dollarigacha oshgan. Mazkur holat mamlakatda investitsiya faolligining kuchaygani va xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarning yaxshilanayotganini ko'rsatadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bog'liqdir [11]. Xususan, investorlar uchun huquqiy kafolatlarning kuchaytirilishi, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining rivojlantirilishi, soliq va bojxona sohasidagi imtiyozlarning kengaytirilishi investitsiya oqimining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xorijiy investitsiyalar hajmining o'sishi O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday investitsiyalar korxonalarga qo'shimcha moliyaviy resurslar, zamonaviy texnologiyalar va yangi boshqaruv tajribalarini jalb qilish imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarish hajmi kengayadi, innovatsion faoliyat rivojlanadi, eksport imkoniyatlari oshadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi kichik biznesning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [5]. Umuman olganda, 2021–2025-yillardagi ijobiy dinamika O'zbekistonda investitsion muhitning takomillashib borayotganini hamda xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kichik biznesni rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Ular korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, 2021–2025-yillarda O'zbekistonga jalb qilingan TTXI hajmining o'sishi kichik biznes subyektlari faoliyati, ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda UNCTAD ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.



Ikkinchidan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarning joriy etilishi mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini oshirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, TTXI kichik biznesning xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, eksport hajmi va valyuta tushumlarining ortishiga yordam bermoqda.

To'rtinchidan, investitsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, hududiy investitsiya loyihalari kichik biznes faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, investitsiyalarning hududlar bo'yicha mutanosib taqsimlanishini ta'minlash, ayrim kichik korxonalarda zamonaviy boshqaruv tajribasini yanada rivojlantirish, eksport faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsion loyihalarni faol rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi.

Mazkur yo'nalishlarni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan infratuzilma loyihalarini kengaytirish;
- kichik biznes va xorijiy investorlar hamkorligini rivojlantiruvchi raqamli platformalarni yaratish;
- eksportga yo'naltirilgan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- yuqori texnologiyali tarmoqlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish;
- tadbirkorlarning investitsiya va xalqaro biznes bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish;
- davlat, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish va ulardan oqilona foydalanish kichik biznesning raqobatbardoshligi, innovatsion rivojlanishi va eksport salohiyatini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashning muhim omilidir. Shu sababli investitsiya muhitini takomillashtirish, investorlar uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va hududlarda investitsion faollikni oshirish ustuvor vazifalardan bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schumpeter J. A. *The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle*. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1934. – 255 p.
2. Romer P. M. Endogenous Technological Change // *Journal of Political Economy*. – Chicago : University of Chicago Press, 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. 71–102.
3. Dunning J. H. *Multinational Enterprises and the Global Economy*. – Cheltenham : Edward Elgar Publishing, 1993. – 687 p.
4. OECD. *OECD Investment Policy Reviews: Uzbekistan*. – Paris : Organisation for Economic Co-operation and Development Publishing.
5. UNCTAD. *World Investment Report*. – Geneva : United Nations Conference on Trade and Development.
6. World Bank. *Business Ready*. – Washington, DC : World Bank Group.
7. Abdurahmonov Q. X. *Tadbirkorlik faoliyati va kichik biznes asoslari : darslik*. – Toshkent : Iqtisodiyot, 2021. – 384 b.
8. Shodmonov Sh. Sh., G'afurov U. V. *Iqtisodiyot nazariyasi : darslik*. – Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2020. – 728 b.
9. Xodiyev B. Yu., Shodmonov Sh. Sh. *Milliy iqtisodiyot : darslik*. – Toshkent : Iqtisodiyot, 2022. – 512 b.
10. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar*. – Toshkent : Milliy statistika agentligi. – URL: Stat.uz.
13. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. *Investitsiya faoliyati va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar*. – Toshkent. – URL: MIIT.uz.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Pul-kredit siyosati va bank tizimi faoliyati bo'yicha yillik hisobot*. – Toshkent : O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – URL: CBU.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>